

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI BOSHLANG'ICH SINFLARDAN BOSHLAB O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Radjabova Gulandom Rahmatovna,

Buxoro viloyati, Romitan tumani 24-umumta'lim maktab oliy toifali
informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi
gulandomradjabova4@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllanishi va o'sishi ko'p jihatdan axborot texnologiyalariga bog'liqdir. Bu metodik tavsiyada matematika fani tarkibida darsliklarda o'quvchilarni mantiqiy fikrlaydigan informatikaning boshlang'ich tushunchalarini beradigan topshiriqlardan namunalar hamda boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'quvchilar o'zlashtirishi muhim bo'lgan mavzularni o'zlashturishga oid mashq daftarlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. *Axborot, algoritm, mulohazalar, sohalarni aniqlash, , mantiqiy topshiriqlar, "Palitra" metodi, "Algoritm" metodi,*

ABSTRACT

The formation and growth of students' scientific outlook, ability to think logically, mental development, self-awareness potential depends to a large extent on information technologies. This methodical recommendation includes examples of assignments in mathematics textbooks that provide students with the basic concepts of informatics that make students think logically, and organization of exercise books related to the mastery of subjects that are important for students to master in the science of informatics and information technologies in elementary grades. recommendations are presented.

Key words. *Information, algorithm, judgments, definition of areas, logical assignments, "Palette" method, "Algorithm" method,*

KIRISH

Respublika Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror

bilan Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashga, zaruriy ma'lumotlar banklaridan mustaqil foydalanishga, keng qamrovda ijodiy fikrlashga, kompyuter texnikasi bilan erkin muloqot qila olishga o'rgatish muhimdir. Buning uchun o'quvchilarga boshlang'ich sinflardan boshlab informatika fanining boshlang'ich tushunchalarini fanlar tarkibida berib borish ta'lim sifati samaradorligini oshiradi. Informatikaning boshlang'ich tushunchalari axborot, algoritm, mulohazalar, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini kengaytiradi. Matematika fani tarkibida bir turdagi misol va masallarni ko'plab yechishdan ko'ra darsliklarda o'quvchilarni mantiqiy fikrlaydigan informatikaning boshlang'ich tushunchalarini beradigan topshiriqlarni o'qitish maqsadga muvofiqdir. Chunki fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashi uchun o'quvchilarni boshlang'ich sinflardan boshlab kompyuter informatika va axborot texnologiyalari savodxonligini oshirib borish lozim. Inson kundalik hayotida har kuni turli harakatlarni bajaradi, qaysiki bular, yig'ish, izlash, uzatish, qabul qilish, yaratish, saqlash va qayta ishlash. Masalan, uy vazifasini bajarish jarayonida, matnni o'qish orqali axborot qabul qilinadi. Siz darslikdan qaysidir paragraph yoki sahifani qidirasiz,-bu axborotni izlash. Ob-havoning o'zgarishini kuzatib ma'lumotlar orqali jadval to'ldirasiz-bu axborotni yaratish, Agar siz telefon orqali gaplashsangiz- bu axborotni uzatish va axborotni qabul qilish. Agar siz daftarga biror ma'lumotni yozsangiz, yoki kompyuterda biror faylda saqlasangiz-bu axborotni saqlash. Biror masalani yechish jarayonida, savollarga javob topish –bu axborotni qayta ishlashdir.

Boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'quvchilar o'zlashtirishi muhim bo'lgan mavzularni o'zlashturishga oid mashq daftarlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar.


Boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'quvchilar o'zlashtirishi muhim bo'lgan mavzularni o'zlashturishga oid mashq daftarlarini tashkil etish bo'yicha mashq daftarlari tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki axborotlar va ularning ko'rinishlari, axborotlarni kodlash, mantiqiy mulohazalar algoritmlarga, kompyuter qurilmalariga oid topshiriqlar o'quvchilardan mantiqiy fikrlashni talab etadi. Bu topshiriqlar rasmlar, turli tasvirlar, shakllar, algoritmlar, mantiqiy o'yinlar, jadvallar, rebuslar, matnli topshiriqlardan tashkil topadi. Bunday topshiriqlarni o'quvchilarga berish va ularni bajarish uchun alohida mashq

daftarlari tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Mashq daftarlarida quyidagicha topshiriqlar o'rin egallaydi.

Sohalarni belgilash haqida

1-topshiriq . Quyidagi rasmda nechta hudud borligini aniqlash.

- 1
- 2
- 3
- 4
- 5
- 6
- 7



- 1
- 2
- 3
- 4
- 5
- 6
- 7



Rasmining barcha qismlari bo'yaldi . Demak, bu rasmda 7 ta hudud bor

Mantiqiy topshiriqlar

1-topshiriq . Quyidagi oynada Ra'no 7 dan 16 gacha bo'lgan barcha raqamlarni yozishi kerak edi. Lekin Ra'no ikkita sonni yozishni esidan chiqardi. Sanoq chizg'ichidan foydalanib, bu oynani to'g'ri to'ldirish uchun ikkita qaysi sonlar yetishmasligini aniqlang.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----

13	13	8	110	11	14	17	7	12
----	----	---	-----	----	----	----	---	----

“Palitra” metodi . Bu metodni natural sonlarning yozilishi, bir o'chov birligi boshqa bir o'lchov ko'rinishi orqali ifodalash ulushlar, to'g'ri va noto'g'ri kasrlar, kabi turli mavzularda qo'llash mumkin .

Topshiriq . Berilgan o'lchov birliklarga tegishli o'lchov birliklarini toping va mos ranglarda bo'yang.

uzunlik o'lchov birliklari	1tosh= 7-8 km	1 kavadrat millimetr	1 sutka	1kub santimetr	1 yil	1 sentner
massa o'lchov birliklari	1 sotix	1 millimetr	1arshin= 71,1 sm	1kvadrat santimetr	1 soat	1gaz= (70-

						90)sm
yuza o'lchov birliklari	1 sekund	1 hafta	1 metr	1 kilo-gramm	1 gektar	1 asr
hajm o'lchov birliklari	1 litr	1 kub detsimetr	1gramm	1 kvadrat kilometr	1 oy	1 kvadr at metr
vaqt o'lchov birliklari	1minut	1 kvadrat metr	1chaqirim=1 006 metr	1 tonna	1 kilometr	1 kub milli metr

“Algoritm” metodi

Algoritm deganda biror maqsadga erishishga qaratilgan, ijrochi bajarishi uchun mo'ljallangan buyruqlarning ketma-ketligi tushuniladi.


Matematika darslarida biror bir masalaning yechilishida yoki misollarninig bajarilishi ketme-ketligini algoritm orqali tushuntirish maqsadga muvofiq


Topshiriq . Matematik figuralarni hosil qilish uchun qalamning harakatini belgilab olamiz

↓	↑	→	←	↗	↖	↘	↙
pastga	yuqoriga	o'ngga	chapga	yuqori o'ngga	yuqori chapga	quyi chapga	quyi o'ngga

Ushbu algoritmni bajarish natijasida qaysi figura hosil bo'ladi ?

↑ ⁴	↗ ²	↓ ²	→ ³	↘ ²	↙ ¹	↓ ¹	← ⁴
----------------	----------------	----------------	----------------	----------------	----------------	----------------	----------------





XULOSA

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta’lim tizimiga, jumladan, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘rganishga ilg‘or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta’minlanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori .
2. Учебник Информатика в играх 3 класс в 3-частях . Москва 2016 Авторы. Горячев А.В. Горина К.И. Суворова Н.И.
3. Информатика. 2 класс в 2-частях . Авторы. Горячев А.В. и др.
4. Информатика и ИКТ . Рабочая тетрадь для 4 классов .Москва 2016. Матвеева Н.В. Челак Е.Н. и др.
5. Информатика .4 класс. Част. 3. Москва.2012.